

Prezident Shavkat Mirziyoyev Turkmanistonga jo'nab ketdi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 28 noyabr kuni tongda Ashgabat shahriga jo'nab ketdi. U yerda davlatimiz rahbari Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedovning taklifiga binoan Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining navbatdagi sammitida ishtirok etadi.

Tadbir kun tartibidan savdo, investitsiyalar, "yashil" iqtisodiyot va innovatsiyalar, raqamli texnologiyalar, transport, logistika, turizm va boshqa ustuvor yo'nalishlarda ko'p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari o'rin olgan.

Turkmaniston poytaxtiga tashrif doirasida davlatimiz rahbari qator ikki tomonlama uchrashuvlar ham o'tkazadi.



Manba